

2

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Tong Yulduzi

2013-yil 4-noyabr
N:44 (66949)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

KUZGI TA'TIL BOSHLANDI!



Qadrdon o'quvchim! Kechagina yangi o'quv yili, maktab tadbirlari haqida gaplashayotgan edik. Qarang, zumda birinchi chorakni ham yakunlab qo'yibsiz-a? Ha, oltinga teng vaqtning naqadar tez o'tishini, uning har onidan unumli foydalanish lozimligini ulg'ayganingiz sari o'zingiz ham teranroq anglab borayotgandirsiz?.. Shuning uchun ham kattalar birinchi chorakni qanday yakunlaganingiz-u, ta'tilni qanday o'tkazishni rejalashtirayotganingiz bilan qiziqishadi.

Orangizda chorak davomida rejadagi ulgurolmagan ishlarini ta'tilda amalga oshirishni o'ylab qo'rganlar ko'pligi tayin. Masalan, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-maktabning 7-sinf o'quvchisi Odina Tursunboyeva qo'shni qizlar bilan nimcha, sharf to'qishni boshlab yuboribdi. Olmazor tumanidagi 29-maktabning 9-sinf o'quvchisi Abdullo Qosimov esa «Alpomish» dostonini to'liq o'qib chiqishga ahd qilibdi. Uning fikricha, o'quvchiga beriladigan dam olish kunlarini hech bo'lmaganda, bitta badiiy kitob o'qimay, o'tkazib yuborish mumkin emas ekan...

O'quvchilik yillarimda yaxshi bir odatim bor edi: ta'tilda darslikdagi yangi chorakda o'tiladigan mavzularni bir bora o'qib chiqardim. Chunki, har doim eng a'lochi va namunali o'quvchi bo'lishni juda-juda istardim-da!

Ziyrak, bilimdon va intiluvchan bolalar, kuzgi ta'tilni qanday o'tkazganingiz haqida bizga, albatta, yozib yuboring!

QIZLARXON

«OBUNA – 2014» DAVOM ETMOQDA!

DIQQAT! DIQQAT!

Sevimli gazetangizga
obuna bo'lishga
shoshiling!

Nashr ko'rsatkichi – 198



O. ORIPOV olgan suratlar

Sog'lom avlodni tarbiyalash — buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir.

Islom KARIMOV

Oltin kuz nafaqat to'kinchilik, mo'l-ko'l hosil yig'imi davri, balki yurtimizda chop etiladigan gazeta va jurnallarga kelgusi yil uchun obuna jarayoni ayni avj olgan mavsumdir.

Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasining yetakchi mutaxassisi, matbuot xizmati mas'ul xodimi Dilorom YUSUPOVA bilan bo'lgan suhbatimiz shu haqda bordini.

DOIMY HAMROH BO'LSIN!

Har birimizning hayotimiz, taqdirimiz, ertangi kunimiz Vatanimiz mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugunning bolalari, tom ma'noda, mustaqillik farzandlaridir.

Hozirgi tezkor axborot almashinuvi davrida o'quvchi maktabda darsliklardan olgan bilimi bilan chegaralanib qolmay, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishi, gazeta o'qishi kerak. Ayniqsa, bu borada respublika bolalar va o'smirlarining nashri bo'lgan «Tong yulduzi»ning ahamiyati katta. Unda e'lon qilinayotgan tanqli bola-

lar adiblarning eng sara asarlari, respublikamizdagi iqtidorli, ko'plab yutuqlarga erishgan yoshlar haqidagi maqola va lavhalar, iste'dodli o'quvchilarning ijod namunalari, sport sohasidagi yutuqlari, boshqotirma, krossvord va rebuslar hech bir gazetxonni befarq qoldirmaydi.

— **Dilorom opa, poytaxtimizdagi eng ibratli maktablar haqida to'xtalsangiz?**

— Maktab deganda ko'z o'ngimizda bolalarni chin dildan sevvuchi, bor bilimi,

salohiyatini yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlaydigan fidoyi ustozlar-u bilimga chanqoq o'g'il-qizlar namoyon bo'ladi. Shunday ustozlar bor ekan, ibratli maktablarimiz ko'payaveradi. Shahrimizda bunday faol ta'lim maskanlari anchagina. Masalan, Chilonzor tumanidagi 200-, 202-maktablar, Olmazor tumanidagi 243-, 249-maktablar, Shayxontohur tumanidagi 102-, 169-, 324-maktablar, Yakkasaroy tumanidagi 160-, 144-maktablar, Bektemir tumanidagi 289-, 293-maktablar, Yunusobod tumanidagi 259-, 313-maktablar, Sergeli tumanidagi 6-, 300-maktablar, Hamza tumanidagi 152-, 206-, 282-maktablar, Uchtepa tumanidagi 44-, 283-, 287-maktablar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 187-, 205-, 208-, 210-maktablarni yurtimizdagi barcha bilim maskanlariga ibrat qilsak arziydi.

— **O'quvchilarni gazeta-jurnallar mutolaa-siga jalb qilish borasida qanday ishlar olib borilyapti?**

— Mamlakatimiz yoshlarining hech kimdan kam bo'lmagan, yuksak bilim va

ma'naviyatli, teran tafakkur sohiblari bo'lib voyaga yetishlarida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati juda katta. Aslida umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan barcha tadbirlarimiz o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan. Jumladan, noyabr oyi davomida poytaxtdagi tumanlar bo'yicha «Matbuot kunlari» doirasida ochiq eshiklar kuni tadbirlarini o'tkazish rejasiz tuzilgan. Unga ko'ra, joriy yil 5-noyabr kuni Yunusobod va Shayxontohur tumanlarida, 12-noyabrda Olmazor, Chilonzor, Uchtepa, 19-noyabrda Bektemir, Sergeli, Yakkasaroy, 26-noyabrda esa Mirobod, Mirzo Ulug'bek va Hamza tumanlarida «Matbuot kunlari»ni o'tkazish rejalashtirilgan.

— **«Tong yulduzi» o'quvchilariga tilaklaringiz.**

— Aziz o'quvchilar, sevimli nashrlaringizga obuna bo'ling. Zero, fan cho'qqilarini egallashingizda gazeta va jurnallarning o'rni beqiyos.

Dilorom HOTAMOVA suhbatlashdi.
Surat muallifniki

MUTOLAA — YAXSHI USTOZ



Kitobxonlik ma'naviyat komillik asoslaridandir. U xalqimizning o'zi kabi boy va ko'hna tarixga ega. Tadqiqotlarga ko'ra, kitob o'qish inson tafakkurini rivojlantiribgina qolmay, miya hujayralari faoliyatini oshirib, qon aylanish tizimini yaxshilaydi. Shunday ekan, insonning nafaqat ma'naviy, balki jismoniy kamolotida ham mutolaaning ahamiyati yuksak. Yoshlarimiz orasida kitobni, kitobsevarlikni targ'ib etishda o'tkazilayotgan ko'plab tadbirlar o'tkazishdan maqsad yosh qalblarda kitobga mehr uyg'otish, kamolotida mutolaaning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Kuni kecha Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyida «Yuksak ma'naviyatli farzandlar — mustaqil yurt tayanchi» shiori ostida o'tkazilgan an'anaviy «Zukko kitobxon» shou-tanlovidan ko'zlangan asosiy maqsad ham o'quvchi yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib qilish, mutolaa madaniyatini oshirish, axborot kommunikatsion texnologiyalari orqali kitob o'qishni targ'ib qilish edi. Tanlovda akademik litseyning 7-«A», 7-«E», 7-«F» sinflarining «Mezon», «Tafakkur», «Fikrat» jamoalari «Kitobxonlik lavhalarini aks etgan ijodiy albom tayyorlash», «Notiqlik mahorati», «Noma'lum asar», «Zehn matni», «Zukko kitobxon» kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar.



«Notiqlik san'ati» sharti bo'yicha bellashgan guruh sardorlari o'zlari tayyorlab kelgan monolog, she'riy nutqni ijro etib berdilar.

«Mezon» guruhi vakili Mashhura Abdunazarova Xurshid Davronning «Ota qabri» she'rini, «Fikrat» jamoasi vakili Sinder Abduvoitov Anvar Obidjonning «Bo'rining tabib bo'lgani haqida etak», «Tafakkur» jamoasi vakili Nozima O'ktamova Shuhratning «Mardlik afsonasi» balladasini o'qidi. Zukko o'g'il-qizlarning chiqishlarini tomosha qilar ekanmiz, xayolimizdan bir faylasufning quyidagi fikrlari o'tdi: «Agar hamma narsa uzluksiz o'qilaversa, keyin o'qilganlar haqida fikr yuritilmasa, ular ildiz otmaydi, ko'pchiligi unut bo'lib ketadi». Darhaqiqat, o'qilgan kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi, mazmunlisi foyda keltiradi. Mazmunda, tarbiyaviy ahamiyatga ega monolog, she'riy nutq tanlab, ularni zo'r mahorat bilan ijro etgan sardorlarni nafaqat tengdoshlari, balki tadbirga taklif etilgan ota-onalar, ustozlar

ham gulduros qarsaklar bilan olqishlashdi.

Litseyning ona tili va adabiyot uslubiyot birlashmasi rahbari Jamoliddinxon Nurmuhamedov hamda shu fandan dars beruvchi ustoz Dono Usmonova boshchiligidagi tayyorlangan mazkur shou-tanlovda elimiz ardorg'idagi ijodkorlardan O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim,



shoir Abdurahmon Jo'ra hamda O'zbekiston Milliy universitetining professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim so'zga chiqib, kitobsevarlik haqidagi ibratli fikrlari bilan o'rtoqlashdi, o'quvchilar o'qiyotgan badiiy asarlarning qadr-qimmatini haqida gapirib, jumladan shunday dedi: «O'quvchilar Krilovni o'qiyaptimi, Maqsud Shayxzodani angliayaptimi, Chexovni tahlil etyaptimi, yoshlarimiz badiiy asarlarga chanqoqmi, demak, millatimiz kelajagi porloq!»

Mazkur bilim dargohida yaxshi bir an'ana bor: mana shunday tadbirlarda kitob yarmakalari ham o'tkaziladi. Ushbu shou-tanlovda ham ana shu an'anaga sodiq qolgan holda «Muharrir», G'afur

G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «Akademnashr» nashriyotlari bilan hamkorlikda kitob yarmakasi tashkil etilib, nashr uyalarining sara asarlari tanlov ishtirokchilariga taqdim etildi. «Muharrir» nashriyoti direktori Abdug'afur Iskandarov so'zga chiqib, o'quvchilarga kitob o'qish madaniyati, uning qadr-qimmatini haqida kerakli maslahatlar berdi. Tanlov yakunida akademik litsey ma'muriyati, nashriyot xodimlari, ota-onalar kengashining qimmatbaho sovg'alari jamoalarga taqdim etildi. Litsey rahbari Zulfiqor aka Xolmirzayev kitobxon o'quvchilarni tabriklab, o'qishlarida muvaffaqiyatlar tiladi.

Tanlovda «Tafakkur» jamoasi birinchi, «Mezon» jamoasi ikkinchi, «Fikrat» jamoasi uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

«Zukko kitobxon» shou-tanlovi kitobsevarlarni yana bir bor do'stona, ijodiy muloqotga chorladi.

Mutolaa — yaxshi ustoz. U kitob mutolaasi bo'ladimi, gazeta-jurnal mutolaasimi, insonning ma'naviyatini shakllantiradi, kamolotga yetaklaydi, so'z boyligini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Buni teran anglagan litsey o'quvchilari respublika bolalar va o'smirlar nashri «Tong yulduzi» obunasini birinchilardan bo'lib boshlab yuborishibdi. Chin ma'noda ziyo kechasiga aylanib ketgan tadbir ishtirokchilari bilan qilgan ijodiy uchrashuvimizdan, ularning sevimli nashrlariga oid ko'plab savollaridan angladikki, kelgusi yil mazkur bilim dargohida uning obunachilari soni yanada ortadi. Biz tahririyat jamoasi esa gazetxonlarimiz ishonchini oqlash uchun gazetaning ma'no-mazmunini, mundarijasini boyitish borasida izlanishdan charchamaymiz.

Feruza JALILOVA.

Suratlar muallifi: Z.MAMATQULOVA

Bir maktabdan qo'sh maktub

MUQADDAS TUYG'U

YURTIMIZ JAMOLI



Vatan... Bu so'z tilga ko'chganda, yuraklar shodlikdan hapriqadi. Ana shu tuyg'uni esa hech bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Vatan tuyg'usi inson qalbiga ona allasi, bobolar o'giti, otalar hikmati, ustoz-murabbiylar ta'lim-tarbiyasi orqali singadi. Bu muqaddas tuyg'u og'ir damlarda unga ko'mak beradi, madad bo'ladi. Bugun biz yoshlar Istiqlol bergan keng imkoniyatlar tufayli ozod yurt bag'rida tinch-totuv yashab, kamol topmoqdamiz. Shunday ekan, dorilomon kunlar qadriga yetib, yurtimiz tinchligini asrab-avaylab, ona Vatanga munosib farzand bo'laylik!

G'anisher SULTONOV



Jonajon yurtimiz kundan kunga chiroy o'chib Bugun chekka-chekka qishloqlarda ham zamonaviy uslubda qad rostlayotgan maktab, kollej va akademik litseylar, sport inshootlarini ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Yaratilayotgan shart-sharoitlar biz yosh avlodning kelgusida komil inson bo'lib voyaga yetishimizni ta'minlaydi. Biz ham jamoa yuksak e'tiborga javoban a'lo o'qishimiz, burchimiz faol qatnashishimiz darkor. Shundagina yurtimiz oldidagi eng kichik burchimizni ado etgan bo'lamiz.


Marjona ERGASHEVA

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 34-maktab o'quvchilari

ENG ULUG' DARGOH

Har bir o'quvchi uchun eng ulug' dargoh maktab bo'lsa kerak, shunday emasmi? Chunki bu maskanda bilim cho'qqilarini egallaymiz, dunyoqarashimizni kengaytiramiz. Mehribon ustozlarimizning beminnat saboqlari tufayli kelajakda komil inson bo'lib yetishamiz. Ustozlarimizning fidokorligi, mehribonligi tufayli jonajon maktabimiz sari talpinaveramiz. Shunday ekan, ularning qadriga yetishimiz, maktab mulkini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz darkor.

Barno MAMAJONOVA,
poytaxtimizdagi 59-IDUMning
5-«B» sinf o'quvchisi



USTOZLARGA TA'ZIMDAMIZ

Ilk bora maktab ostonasiga qadam qo'yganimizda, qo'llarimizdan tutib, keng va yorug' sinfga olib kirgan ustozimizdan behad minnatdorman. «Tong yulduzi» gazetasi bilan ham aynan shu muallimim tanishtirgan edilar. Yillar davomida bizga ta'lim-tarbiya beradigan, qalbimizda Vatanga muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ularni shakllantiradigan o'qituvchilarimizning kasbi nechog'lik mashhaqqatli, shu bilan birga ham qiziqarli, ham sharaflidir. Shuning uchun ham ustozlarimiz doimo izzatda, hurmatdalar.

Zulfizar SHERMATOVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi
tumanidagi 69-umumta'lim
maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

RAQS SAN'ATI G'UNCHALARI

Yaqinli kuy ohangiga monand ijro etilgan chiroyli raqs inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, ko'nglidagi g'uborlarni tarqatadi. Raqs go'zal tuyg'ular, nozik kechinmalar ni ifoda eta olishi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. Ayniqsa, jazzi raqqosalarining nafis xatti-harakatlari tomoshabiniga bir olam zavq ulashadi, uni sehrlab qo'yadi, go'yo.

Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan yosh raqqosalarimiz ham raqs san'atiga mehr qo'ygan qizaloqlardan. Ra'noxon Niyozova va Robiyabonu Erkinova Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 4-Madaniyat uyi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Hilola» folklor-etnografik havaskorlik raqs dastasiga qatnab, bu nafis san'at turi sirlarini zo'r ishtiyok bilan o'rganib kelishmoqda.

Ra'noxon Niyozova Olmazor tumanidagi 191-maktabning 4-sinfida tahsil oladi. A'lo o'qishi va namunali xulqi uchun har yili «Faxriy yorliq» bilan taqdirlanadi. Robiyabonu esa Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan 64-umumta'lim maktabining 3-sinfida o'qiydi.

Farzandlaridagi raqs san'atiga bo'lgan qiziqishni payqagan onajonlari Barnoxon va Surayyoxon opalar farzandlarini ushbu dastaga yetaklab keldilar. Bugungi kunda ularga tajribali ustoz, iqtidorli san'atkor, Jamilaxon opa Hamidova milliy va zamonaviy raqs sirlarini o'rgatib kelmoqda. Jajji raqqosalar ham ustozlaridan o'rgangan jozibador raqslarini tuman va shahar miqyosida o'tkazib kelinayotgan turli madaniy tadbirlarda ijro etib, kechalarga fayz kiritib kelmoqdalar. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Toshkent» telekanali orqali namoyish etilgan «Mening mahallam», «Kasbim – faxrim», «Istiqlol g'unchalari» teleko'rsatuvlarida «Surxoncha», «Tovus», «Ispancha» raqsleri,

«Chittigul», «Bo'z-to'rg'ay», «Lolajon», «Onajonim» kabi o'zbek xalq laparlarini ijro etib, ko'pchilikning nazariga tushdilar.

Bu tinib-tinchimas dugonalar Hilola Elmurodova rahbarligidagi to'garakda ingliz va rus tillarini katta qiziqish bilan o'rganishmoqda. Shuningdek, gimnastika to'garagi mashg'ulotlariga qatnash uchun ham fursat topishadi. Mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarida badiiy kitob o'qishadi, xonaki gullarni parvarishlashadi.

Yosh iqtidor egalarining kelajakdagi orzulari ham tayin: «Hilola»ning niyati rahbari Jamilaxon opadek mehridaryo ustoz bo'lib, «Ustoz – shogird» an'alarini davom ettirib, yoshlarga milliy raqs san'ati sirlarini o'rgatish.

Qattingizdek pok, beg'ubor
orzularingiz ijobat bo'lsin,
san'atsevar qizlarjon!

Muhammadjon QOZOQBOYEV,
Ma'rufjon VAHOBOV

TADBIRLAR KO'PROQ BO'LSIN

Maktabimizda o'tkazilgan til bayramida o'zbek tilimizning tarixiga ko'proq e'tibor qaratildi. O'quvchilarning «Kuntug'mish» dostonidan tayyorlagan sahna ko'rinishi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Qizlarning go'zal raqsleri bayramga o'zgacha fayz kiritdi.

Men bizga ana shunday zavq ulashadigan, so'z boyligimizni oshiradigan tadbirlarni juda yaxshi ko'raman. Chunki, ularda darsda olgan bilimimizni mustahkamlaymiz, ona tilimizga bo'lgan hurmatimiz ortadi. Zero, buyuk bobolarimizdan meros ona tilimizni puxta o'rganmay turib, xorijiy tillarni o'zlashtirish mushkul.

Nozima MURODOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 40-maktabning
8-sinf o'quvchisi



Kitob javonimdagi bir qancha adabiyotlar qatoridan olim va adib Ibrohim G'afurovning keyingi yillarda yozgan adabiy-badiiy badialari, axloq, ma'naviyat, insonning jamiyatdagi tutgan o'rni to'g'risidagi o'y-qarashlari, publitsistik tadqiqotlari jamlangan «Mangu latofat» kitobi ham o'rin olgan. Kitobni qayta-qayta o'qiganim sari, hayratim ortaveradi. «O'zing murabbiysan, O'zbekiston!» maqolasidagi ushbu satrlarni siz aziz o'quvchilarga ham ilingim keldi.



*Men nechun Vatan deb she'r yozdim bugun?
Qalbda qaynoq tafting his qilganim-chun!
Tuyg'ularim tug'yon urgay seni deb,
Tomirda qon jo'shib yurgay seni deb,
Jannatday oshyonim, O'zbekistonim!*

*Ajdodlarim qoni tepib turguvchi,
Manglayin Humolar o'pib turguvchi,
Naqadar suluvsan, ko'z quvnatguvchi,
Sernavo maskansan, sen o'zing shonim,
Jannatday oshyonim, O'zbekistonim!*

*Har kinga o'zining Vatani yaxshi,
Burgutga poyonsiz osmoni yaxshi,
Kapalaklarga ham gulshani yaxshi,
Menga sen azizsan, nurli makonim,
Jannatday oshyonim, O'zbekistonim!*

Termiz shahridagi 16-maktabning 5-sinf o'quvchisi Zebiniso ESHPO'LATOVANing qalbida ham Ona Vatanga cheksiz muhabbati bo'lmaganida u: «Men bila-man har yurakda mehr bor, men bilaman bu o'lkada sehr bor», deb yozarmidi?! Yoki, 4-maktabning 6-sinf o'quvchisi Yulduz USMONOVA:

*«Ona yurtim mevalari qand-u asal,
Uni yegan inson aslo bo'lmas kasal,
Bug'doy, paxta bo'lar bisyor,
O'zbekiston – jannat diyor» dermidi?*

Jajji yuraklarning Vatan haqidagi fikr-mulohazalarini o'qib, qalbim faxr-iftixorga to'ladi. Yana «Mangu latofat»ga yuzlanaman.

Bizning taqdiridan shod va minnatdor bo'ladigan tomonlarimiz ko'p.

Tan beraman: sen Otasan!

Tan beraman: sen Onasan!

Tan beraman: sen murabbiysan, O'zbekistonim!

Feruza SOYIBJON qizi

O'ZING MURABBIYSAN, ZBEKISTONIM!

Shavqlarga to'lib yosh boladay sanasam, o'nsan. Barcha yaxshiliklarda yonimda o'ngsan. Mening hayot va tiriklik qovurg'alarim sening o'n harfingdan bino bo'lgan, ya'ni:

- O** – o'zligim, o'ktam zabonim
- Z** – zebi jahonim
- B** – bag'rikeng, baland osmonim
- E** – 70 ming asrning jonli sadosi
- K** – ko'zim qarosi
- I** – iymon safosi
- S** – suzugim
- T** – tuzugim
- O** – oromi jonim
- N** – non-u tuzim – O'zbekistonim!



Ushbu misralarni o'qiganimda har gal xayolimdan bir fikr o'tadi: ba'zan atrofimizdagi insonlar, yaqinlarimiz, farzandlarimiz bajargan biror yumushdan ko'nglimiz to'lsa, hazil aralash, aslida chindan «sizga o'n baho», deb qo'yamiz. O'n baho barcha yaxshiliklarning o'lchov mezon, nazarimda. Buni qarangi, jonajon diyorimiz nomi ham o'n harfdan iborat. Bejizga Alloh O'zbekiston uchun o'z jannatidan joy bermagan ekan-da, deb o'ylayman. Biroq, nima bo'lganda ham Allohning nazari tushgan yurt, jannatmakon o'lka, deb atashimiz rost-ku.

«Vatan haqida so'z» ruknimizga kelayotgan maktublar mazmunidan ayonki, Siz ham bu mavzuga

aslo befarq emassiz. Ayniqsa, Surxon-daryo viloyati, Termiz shahridagi maktab o'quvchilarining faolligi tahsinga loyiq. Jumladan, shahardagi 15-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi Muyassar KELDII-YOROVA «O'zbekiston» deb nomlangan she'rida shunday yozadi:



ZUBAYDA olgan surat

Iqtidorli tengdoshim

O'zbek milliy cholg'u asboblari dutor chalishning sir-asrorlarini ustoz Zarina opa Toshpo'latovadan o'rgangan bo'lsa, ijod bobida onasidan saboq ola boshladi. Ona xuddi o'z shogirdlari kabi qiziga ham talabchanlik bilan ustozlik qila boshladi. She'riy mashqlarida yo'l qo'ygan kamchiliklarini ko'rsatib, ko'proq o'qib-o'rganishga, tinimsiz ijod qilishga chorladi. Gulasal ham yozishdan, o'qishdan, izlanishdan charchamadi. Shu tariqa bolalarcha samimiyatga yo'g'rilgan she'rilaridan jamlangan «Umr bahori» nomli she'riy, «Dutor madhi» nomli she'r va hikoyalar to'plamlari chop etildi.

Hozirda Muxtor Ashrafiy nomidagi Buxoro san'at kollejining an'anaviy ijrochilik bo'limida tahsil olayotgan intiluvchan qizimiz o'z yo'nalishi bo'yicha «Kelajak ovozi – 2012» respublika ko'rik-tanlovining tuman bosqichida, «Kelajak ovozi – 2013» respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi va Diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

«Qiz bolaga qirg' hunar ham oz» degan naqlga amal qilgan Gulasal hunar o'rganishga ham astoydil bel bog'lagan. Tikish-bichishga, pishiriqlar pishirishga qiziqadi. O'rganganlari kelgusida oqila uy bekasi bo'lishida asqotishini juda yaxshi biladi.

Iqtidorli yoshlarimizdan biri Gulasalxonning beg'ubor qalbi barcha tengdoshlari kabi orzularga limmo-lim. O'zbek san'ati dovrig'ini yanada yuksaltirish, ozod va obod yurtimiz madhini kuylash niyatida izlanyapti, intilyapti. Zero, intilganga tole yor.

M.BOTIROVA.

Muallif olgan surat



Ruhshunos-pedagoglarning fikricha, shaxsning shakllanishida u yashayotgan muhit 40 foiz, irsiyat 15 foiz, tarbiya esa 45 foiz ulushga ega bo'lar ekan.

Darhaqiqat, ana shu omillar inson kamolotini belgilaydi, kelajagiga poydevor bo'ladi. Navoiylik tengdoshingiz Gulasal Qo'ziyevaning adabiyot, san'at sohasida qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlari zamirida ham ana shu omillar yotgan bo'lsa, ajabmas. Qizaloqning qalbidagi san'atga, adabiyotga, she'riyatga bo'lgan havasni ijodkor o'qituvchi onajonisi uyg'otdi. Murg'ak qalbda uyg'ongan havas tumandagi 5-umumta'lim maktabida a'lo bobolarga tahsil olayotgan Gulasalni Muxtor Ashrafiy nomidagi musiqa maktabiga yetakladi.

BOQIY BUXORO



*Moziyga guvohdir qadim minorlar,
Ming yillik tarixga ega chinorlar.
Qal'ada sayr etar bobolar ruhi,
Boqiy Buxoroning so'nmas shukhi.*

*Moziy xotirotlar chorlaydi bizni,
Izlanishga chorlar har o'g'il-qizni.
Tuprog'ing shifobaxsh, ko'zga ziyosan,
O'zbekiston ichra nur, to'tiyosan.*

*Muqaddas tuprog'ing ko'zimga suray,
Qay bir xizimatingga qo'limni uray?!
Dunyo turguncha tur, davr-u davron sur,
Mard o'g'lonlaringga qalqon bo'lib tur.*

*Boqiy Buxoroyim sen jon-u tanim,
Qadim bobolardan qolgan chamanim.
Moziylarga guvoh, ko'hna, navqiron,
Jondan aziz yurtim, mangu bo'l omon!*

Gulasal QO'ZIYEVA

Inson yuksak ma'naviyatli, aql-zakovatli bo'lsagina, atrofidagi voqea-hodisalarni to'g'ri idrok eta oladi. Ilm shunday mo'jizakor kuchga egaki, u kishini el orasida ulug'lab, uni buyuk maqsadlar sari undaydi. Ilm olish uchun esa yana o'sha – eng yaqin do'st, ishonchli hamrohimiz bo'lgan kitobga murojaat qilamiz.

Kuni kecha poytaxtimizdagi Bolalar kutubxonasida O'zbekiston xalq shoiri, senator Iqbol Mirzo bilan yosh kitobxonlar o'rtasida bo'lib o'tgan on-layn muloqotda ham kitobning qadri, uning inson kamolotidagi tutgan o'rnini haqida so'z bordi. Yurtimizning turli hududlarida istiqomat qilayotgan ilmga chanqoq, kitobxon o'quvchilar tomonidan yuborilgan 500 dan ziyod savollarga sevimli shoirimiz atroflicha javob qaytardilar.

Quyida qiziqarli savol-javoblardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz:

SHOIR BILAN UCHRASHUV



On-layn muloqot

– Birinchi o'qigan kitobingizni eslay olasizmi? Sizda kitobga kim mehr uyg'otgan?

– Birinchi o'qigan kitobimni, albatta, eslay olaman. Adashmasam, 7–8-sinflarda o'qib yurgan kezlarim Oqiljon Husanovning «Tog'da o'sgan bola» kitobi qo'limga tushib qoldi. Aynan ana shu kitob qalbimda ijodga, adabiyotga mehr uyg'otgan desam, mubolag'a bo'lmaydi. Keyinchalik, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusufning she'rlari o'zining mazmunan boyligi, so'zlarining sodda, ravonligi bilan meni o'ziga maftun etgan.

Birinchi ustozlarim deya hech ikkilanmay, ota-onamni aytgan bo'lardim. Ular ilmga chanqoq, ko'p kitob o'qigan

ziyoli kishilar bo'lishgan. Ilk bor dadam meni Qo'qondagi muzeyga olib borganlari sira yodimdan chiqmaydi. Muzeydagi har bir eksponatni diqqat bilan tomosha qilib, olam-olam taassurotlar olganman.

– Sizningcha, shaxsiy kutubxona qanday bo'lishi kerak?

– Bugun biz globallashuv asrida yashayapmiz. Bunday tezkor axborot almashinuvi davrida inson o'zligini, milliy urf-odatlarini saqlab qolishi muhim masala. Faqat ko'p kitob o'qib, savodxonlikni oshirish bilanгина ana shu maqsadga yetish mumkin. Shunday ekan, bugun har biringizning uyingizda shaxsiy kutubxonangiz bo'lishini juda-juda istayman. Unda, albatta, Alisher Navoiy, Bobur g'azallari, Amir

Temur tuzuklari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi shoir, yozuvchilarimizning kitoblari bo'lishi kerak. Bir narsani hech qachon unutmasligingizni istardim: kompyuter, internet orqali oson yo'l bilan topilgan ma'lumotlar xotirada uzoq saqlanib qolishi mumkin emas. Aksincha, kitob orqali olingan ilm bir umr yodingizda qoladi.

– Sportning qaysi turini yaxshi ko'rasiz? O'zingiz ham uning biror bir turi bilan shug'ullanasizmi?

– Sport bugungi kunda yurtimiz yoshlari hayotining mazmuniga aylanib ulgurdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarning safi yildan yilga kengayib borayotgani quvonarli hol, albatta.

Men va farzandlarim hayotida ham sport alohida o'rin tutadi. Farzandlarim bilan birgalikda har kuni ertalab badantarbiya mashqlari bajarishni, yugurishni kanda qilmaymiz. Inson qancha erta tursa va sport bilan muntazam shug'ullansa, har bir ishida unum bo'ladi. Shuningdek, oynayi jahon orqali futbol va tennis musobaqalarini tomosha qilish ham menga o'zgacha zavq beradi.

– Ilk marta qaysi gazeta va jurnalarda she'rlaringiz chop etilgan?

– O'quvchilik yillarimda «Yoshlik» jurnalida tez-tez she'rlarim chop etilib turardi. Bu esa adabiyot bilan kelajak taqdirimni bog'lashimga, ijod bilan jiddiy shug'ullanishimga turki bo'lgan. Keyinchalik ocherk va yapon tilidan qilgan tarjimalarim ham respublika va viloyat nashrlarida chop etilgan.

– «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga tilaklaringiz...

– Bu gazeta o'quvchilik yillarimda mening eng yaqin hamrohim bo'lgan. Ilmga chanqoq do'stlarim bilan «Tong yulduzi»ning har bir sonini intiqib kutar edik. Yozuvchi va shoirlarning, shuningdek, iste'dodli tengdoshlarimizning ijod namunalari o'qib, bir olam zavqqa to'lardik.

Bugunning baxtli bolalari ham ko'proq ilm olib, kitob o'qishlarini, adabiyotga oshno bo'lib, mutolaa zavqidan bahramand bo'lishlarini istayman.

Manzura UBAYDULLAYEVA yozib oldi.
Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

HAVASIM KELADI SENGGA, BOLAJON!



Kuni kecha poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'lim maktabida ona tili va adabiyot fani oyligi doirasida, bolalar uchun mo'ljallangan bir necha kitoblarni muallifi, ijodkor Nabijon Ermatov bilan bo'lib o'tgan uchrashuv ham ijodga mehri baland bo'lgan o'quvchilar qalbidagi uzoq vaqt saqlanib qolsa, ajab emas.

Maktab rahbari Gulnoza ota Muzaffarova, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Ziyoda Tosheva, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Umidaxon Nurmatova tashabbusi bilan o'tkazilgan tadbirni kuzata turib, o'quvchilarning intiluvchanligi, bilimga chanqoqligidan binohiya mamnun bo'ldik. Ayniqsa,

Maktab o'quvchilarining adabiyot va she'riyatga bo'lgan qiziqish va intilishlarini kamol toptirishda tanqli adiblar ishtirokida o'tkaziladigan davra suhbatlari va ijodiy uchrashuvlarning o'rnini beqiyos.

5-«B», 6-«G», 7-«A» sinf o'quvchilari tomonidan o'qilgan shoir qalamiga mansub she'rlar tadbirga o'zgacha fayz kiritdi.

Shoir Nabijon Ermatov bunday e'tibordan to'liqlanib, adabiyotga, she'riyatga havas qo'yan o'quvchilarga ijod dunyosining o'ziga xos qirralari haqida so'zlab berdi. Texnika zamonida yashayotgan bolalarning dunyoqarashi, ularning o'ziga xos fe'l-atvori, orzu-intilishlari haqidagi

«Havasim keladi senga, bolajon» nomli she'rini o'qib, barchaning ko'ngliga xushnudlik ulashdi.

5-«B» sinf o'quvchilari Aziza Eryigitova, Madina Inatillayeva, Feruza Rahimjonovaning Vatanga, ota-onaga, bolalikka bag'ishlangan she'rlari, 6-«G» sinf o'quvchilari ijrosidagi «O'zbekim qizlari» raqsi davraga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

– Biz ushbu tadbirga ustozimiz Umida opa Nurmatova boshchiligidagi puxta tayyorgarlik ko'rdik.

Sevimli shoirimiz Nabijon Ermatovning biz bolalarga atab yozgan she'rlari, topishmoq va tez aytishlarini yod olib, aqlimizni charxlab, zukkoligimiz va topqirligimizni sinovdan o'tkazdik – deydi 5-«B» sinf o'quvchisi Feruza Rahimjonova.

Bu kabi ijodiy uchrashuvlardan olingan zavq yosh ijodkorlarga qanot bag'ishlaydi.

Mahmudjon AZIMOV

UKAM

Ahmadjon ukam bilan
Yursam birga, yonma-yon,
Uzoq-yaqin do'stlarim
Bo'lib qolishar hayron.

Bo'ychangina ukamdan
Uzishmasdan ko'zlarin.


– Bu kim? Akangmi? – deya
Boshlashadi so'zlarin.
– Shunday akang bor ekan,
Aytma-san-a, og'ayni.
Ayt, qayerda o'qiydi,
Bizni tanishtir qani?

Ne deyishni bilmadan
Qolaman har safar jim.
(Na iloj, ancha kichik
Axir bo'yidan bo'yim).

– Akammas, ukam! – desam,
O'rtoqlarim ishonmas.

Qo'shib qo'yishar yana:
– Yolg'on gapirma, O'lmas!
– Topdingiz! To'g'ri, – deyman
Gapni hazilga burib.
– Aka! – deyman ukamni
Yelkasiga bir urib.

Quvoniblar ketaman
Yuziga qarab bir dam –
Men onamga o'xshasam,
Dadamga o'xshar ukam.



QISH ERTAGI



Bolajonlarni chorlab
Yoniga bog'cha opa,
Qish haqida hikoya
Boshlar nechanchi daf'a:

– Qishda gup-gup yog'ar qor,
Daryolar muz qotadi.
Ayiqlar inida
Tushlar ko'rib yotadi.

Muzlab ketar qir-adir,
Sovib ketar osmon ham.
Chiqay demas ko'chaga
Bunday payt biror odam.

Qor ko'rpaga burkanib,
Hordiq olar bolalar,
Issiq-issiq kiyinib,
Yurar bog'cha bolalar...

Bog'cha opa so'zlarin
Tugatarkan shunday deb,
Savol berar Ozodbek,
Qo'li picha sovuq yeb.

– Sovuq bo'lsa hammayoq,
Sovuq bo'lsa tog'-u tosh,
Qanday yurar osmonda
Sovuq qotmasdan Quyosh?..

Abdurahmon AKBAR

Darsdan tanaffusga chiqqan edik.
Sinfoshim Erg'oz: «Sobir, momong
chaqiryapti!» deb qoldi.

– Qaysi momom? – deb so'radim
undan.

– Momong, momong-da! – dedi u.
– Chiqmayman ularning oldiga.
Chiqsam, sigirga suv ber, qo'ylarni boq,
otga yem ber, deyaveradi. Darsim-chi?

Faqat birgina momom yaxshi. U
boshimni silaydi, erkalaydi,
meni o'pib, bag'riga bosadi.

– Qaysi momong? – dedi
u ko'zimga tikilib.

– Aytmayman.

– Aytmasang, o'rtoq-
likni uzaman. To'p o'y-
nashda darvozaga o'zing
turasan.

Bu gapni eshitgan Erg'oz: «Sobir, momong
chaqiryapti!» deb qoldi.

– Qaysi momom? – dedi u.
– Momong, momong-da! – dedi u.

– Chiqmayman ularning oldiga.
Chiqsam, sigirga suv ber, qo'ylarni boq,
otga yem ber, deyaveradi. Darsim-chi?

Faqat birgina momom yaxshi. U
boshimni silaydi, erkalaydi,
meni o'pib, bag'riga bosadi.

– Qaysi momong? – dedi
u ko'zimga tikilib.

– Aytmayman.

– Aytmasang, o'rtoq-
likni uzaman. To'p o'y-
nashda darvozaga o'zing
turasan.



Gollar boshingdan yong'oqdek
yog'iladi...

Erg'oz: «Sobir, momong
chaqiryapti!» deb qoldi.

– Qaysi momom? – dedi u.
– Momong, momong-da! – dedi u.

– Chiqmayman ularning oldiga.
Chiqsam, sigirga suv ber, qo'ylarni boq,
otga yem ber, deyaveradi. Darsim-chi?

Momongga katak yasab berding-
larmi? Tuxumi nechta edi? Tuxumi
tovuqnikimi yoki kurkaniki?

– U yog'ini aytmayman. O'sha
shaftoli so'rgich momongga aytasang, u
ham o'rganib olib, dunyoni jo'jalarga
to'ldirib yubormasin, tag'in.

– Aytmasang yo'qol, o'rtoqlikni
uzaman!

Uf, bekor aytdim, bu maymunga!
Endi undan qutulish qiyin. Darvozaga

osilganidek, bir gapni eshitsa, o'shanga
osilgani-osilgan.

– Momomni, boshqa momolar,
bobolar, yigitlar, qizlar – hamma-
hammasi «Boybichcha momo!» deb
atashadi.

– «Tovuq momo» deyishmasmidi?
Aytasang ayt, aytmasang yo'limni
to'sma!

U endi achchiqlana boshladi.

– Kurk tovuq
momoning nabirasi.

– O'zingning
momong kurk
tovuq. Men
Boybichcha
momonga atab
she'r yozgan-
man. Mana, eshit:

Yuring, chiqay yetaklab,
Gullar tutay etaklab,
Chechaklarga bosing lab.
Buvijonim, bu Navro'z
Olam gul ichra yashnar,
Ming bir tovusga o'xshar,
Yashil poyondo-z to'shar,
Buvijonim, bu Navro'z!

Shu payt darsga qo'ng'iroq chalindi.
Hamma sinflarga qarab yugurdi. Biz
ikkimiz tashqarida – maktab hovlisining
burchagida qoldik. Erg'oz ham she'r
o'qiy boshladi:

Kurk tovuq momom, bu Navro'z,
Chalib bering chanqovuz!..
– Sening momong kurk tovuq!
– Sening momong!..

Ikkalamiz rosa olishdik. Ali tajang
bizni ko'rib qolib, sinf rahbarimiz Elmira
opaga borib aytibdi.

O'roq SAID,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Elmira opa ikkalamizni sinfga olib
bordi. «Jang»imiz sababini hech kimga
aytmadik-ku, oylab arazlab yuridik. Oylab
raqib jamoasi darvozasi bitta ham to'p
kiritolmadik. Chunki Erg'oz maymun
o'sha jamoa darvozasi qo'riqchisi edi.

Jamoamiz bolalari Erg'ozni xafa
qilganim uchun meni koyishdi.

Nihoyat, jamoamiz darvozasi o'zim
egalladim. O'sha paytda Erg'oz may-
mun o'ng qanotda raqib jamoasining to'p
surgichi bo'ldi.

U o'zi aytganidek, to'pni yong'oq
tepgandek yog'dirib boshimdan oshirib
darvozaga kiritdi. O'nta to'pning bittasini
ham qaytara olmadim. U har to'p
kiritganida, «Kurk tovuqning nabirasi,
mana senga!» – deb baqirar edi. Yana
jamoamiz bolalari asalarilardek menga
yopishib «chaqqani-chaqqan!...»

Bir safar to'pni kallam bilan urib
qaytarmoqchi edim, u to'pni qo'li bilan
urib, boshini boshimga qo'chqorlar su-
zishgandek urdi. Ikkalamiz ham ag'da-
rildik. U meni suyak turg'izdi-da, pesho-
namdagi qonlarni kafti bilan surtib:

– Ertaga tuman markazida musobaqa
bo'ladi. Sen darvozamiz qo'riqchisi bo'-
lasan. To'p o'tkazib yuborsang, o'lasan!
Momongga alvido aytib chiq! Men esa
bormayman! – dedi.

– Nega bormaysan?
– Sen bilan yurishni istamayman!
Men qo'rqib ketdim. Agar yutqazib
qo'ysak, nima bo'ladi?

Maktab futbolchilari meni g'ajishadi-
ku!

(Davomi bor)



So'nggi yillarda mamlakatimizda bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning samarasi o'laroq, yoshlarimiz o'tkazilayotgan turli nufuzli xalqaro musobaqalarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilishmoqda.

Poytaxtimizning Uchtepa tumani joylashgan 27-bolalar va o'smirlar sport maktabida ham ana shunday g'alabaga ishtiyoqmand bolalar sportning futbol, voleybol, basketbol, taekvando kabi turlari bilan muntazam shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, maktabda tashkil etilgan taekvando to'garagida ko'plab Sharq yakkakurashiga qiziquvchi yoshlar ushbu sport turining sir-asrorlarini

chuqur o'rganmoqdalar. Maktab taekvando jamoasining turli musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtirokida «B» toifadagi tajribali murabbiy va hakam, qora belbog' sohibi Ravshan Samig'jonovning xizmatlari beqiyos.

– Hozirgi kunda mamlakatimizda sportning taekvando turi jadallik bilan ommalashib bormoqda. To'garagimiz mashg'ulotlarida o'g'il bolalar bilan birga qizlarning ham

shug'ullanayotgani yoshlarimiz orasida sog'lom turmush tarzi qaror topib borayotganidan dalolatdir, – deydi murabbiy Ravshan Samig'jonov.

Joriy yilda ham ustozning ko'plab shogirdlari respublika va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, salmoqli natijalarni qo'lga kiritishdi. Jumladan, fevral oyida o'tkazilgan respublika chempionatida Oynor G'aniyeva 50 kg vazn toifasida yakkali til bahslarida I o'rinni, yakkali massogi bahslarida II o'rinni egallagan bo'lsa, jamoa til va jamoa massogi bahslarida Zulfiya

Yo'ldosheva, Mushtariybonu Xolmuhammedova va Durdona Abdurahmonova I o'rinni qayd etishdi. Ushbu sportchi qizlar Qozog'istonda tashkil etilgan xalqaro turnirda jamoa til va jamoa massogi bahslarida faxrli II o'rinni egallagan bo'lsa, Zulfiya Yo'ldosheva 45 kg vazn toifasida yakkali massogi bahsida kumush medalga egalik qildi.

Biz mohir murabbiy Ravshan aka boshchiligidagi yosh taekvandochilarga navbatdagi musobaqalarda ham omad tilab qolamiz.

Shahobiddin ORTIQOV

BUXOROLIK CHEMPION

Qadrlı o'quvchilar. Istiqloq sharofati bilan respublikamizning chekka-chekka hududlarida ham yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilayotganidan xabaringiz bor.



Murabbiy Samandar Sobirov shogirdi haqida faxr bilan shunday deydi:

– Jasur mening eng umidli o'quvchilarimdan. U qisqa vaqt ichida erishayotgan natijalari bilan ishonchimizni munosib oqlab, tengqurlariga o'nak bo'lmoqda. U 2012-yil milliy kurash bo'yicha Toshkent birinchiligida I o'rin sohibiga aylandi. Joriy yil ham hayotida o'chmas iz qoldirdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. U Toshkentda bo'lib o'tgan respublika chempionatida faxrli II o'rinni, may oyida Qorako'l shahrida o'tgan kurash bo'yicha respublika chempionatida I o'rinni, Chirchiq shahridagi bo'lib o'tgan respublika chempionatida faxrli II o'rinni, Rustam To'rayev xotirasiga bag'ishlab 8-bor o'tkazilgan xalqaro turnirda oltin medalni qo'lga kiritdi.

Hayotda nimagadir erishish uchun inson o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yishi kerak. Buning uchun kishidan kuchli iroda, sabr-toqat, matonat talab etiladi. Kelajakda o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ygan Jasur Samadov singari intiluvchan yoshlar safi kengayishini, yurtimiz sharafini munosib himoya qiladigan chempionlar ko'plab yetishib chiqishini niyat qilamiz.

Umid OMONOV

Ayniqsa, sport bilan muntazam shug'ullanib, g'alabaga erishayotgan sportchilarimizning safi tobora kengayib borayotgani quvonarlidir. Ana shunday yoshlardan biri, Chirchiq olimpiya zaxiralari maktabi o'quvchisi Jasur Samadovdir.

Buxorolik bu tengdoshingiz bolaligida tengqurlariga nisbatan biroz nimjon bo'lgani uchun akalari bilan sport mashg'ulotlariga qatnay boshladi. Undagi ishtiyoqni ko'rgan otasi Jo'rabek aka «O'g'lim kelajakda, albatta, chempion bo'ladi», deya ishonch bilan ta'kidlardir. Jasur tuman, viloyat miqyosidagi sport musobaqalarida qatnashib, tajriba orttira bordi.

Milliy kurash va dzyudo sport turlari sir-asrorlarini yanada mukammal o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilish yosh sportchini Chirchiq olimpiya zaxiralari maktabiga yetakladi. Hozirda Jasur taniqli murabbiy Samandar Sobirov qo'l ostida chiniqib kelmoqda.

Muhammadjon hali bog'cha bolasi. Mana, ikki yildirki oyisi Dilafruz opa bilan har kuni «Futbol – 20» sport majmuasiga qatnaydi...

ZO'R FUTBOLCHI BO'LAMAN



– O'g'lim futbolni shunchalik sevadiki, to'polon qilgudek bo'lsa «Endi futbolga bormaysan», deb koyiymen. Birdaniga ko'ziga yosh oladi, kechirim so'raydi, aytgan ishimni bir zumda bajaradi. Mashhur futbolchilardak to'p surishni orzu qiladi. Nima ham qilardik, unga yetarli sharoit yaratib berishga harakat qilamiz-da endi, – deydi Muhammadjonning oyisi.

– Niyatlarimiz ulug', nasib qilsa, kelasi yildan shahar birinchiligida ishtirok etishni rejalashtiryapmiz, – deydi murabbiy Javohir Mavzurov. – Kelajagi porloq bolalarimiz ko'pchilikni tashkil etishadi. Ana shundaylardan biri Muhammadjon bo'ladi. Nihoyatda tirishqoq,

ko'rsatmalarimizni o'z vaqtida, to'la bajaradi. Jismonan charchab qolasan deyishimizga qaramay, kunda mashg'ulotga keladi. Bir yilning o'zida jamoaning yetakchilari qatoriga qo'shildi. Jo'ra ota Xonazarov va Hamid Rahmatulayev xotiralariga bag'ishlangan turnirlarda ham faollik ko'rsatdi. Ayniqsa, yaqinda o'tkazilgan, «Paxtakor», «Spartak», «Uchtepa» hamda bizning jamoalarimiz, jami oltita jamoa ishtirok etgan turnirda Muhammadjon Qobilov eng yaxshi yarim himoyachi sovrinini qo'lga kiritdi. Uning kelajagiga ishonaman.

– Katta bo'lsam, Messi yoki Ronaldoga o'xshagan futbolchi bo'laman, – deydi yosh qahramonimizning o'zi. – Buning uchun ota-onamning aytganini qilishim, darslarga yaxshi tayyorgarlik ko'rishim va albatta, ustozimning ko'rsatmalarini aniq bajarishim kerak ekan. Bu ishlar qo'limdan keladi. Men, albatta, zo'r futbolchi bo'laman, jahon chempionatiga boraman...

Shoh MUHAMMAD



ONA TABIATNI ASRAYLIK!

50-modda. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasidan



Kuz o'zining oltin pallasiga kirgan damlar. Daraxtlarning barglari sarg'ayib, qizg'ish tus olgan. Hovli-ko'chalarimiz har kuni ikki mahal supurilsa ham, xuddi bir hafta tozalanmaganga o'xshab ko'rinadi. Lekin baribir xazonlarni yig'ishtirib turish kerak.

Erta bilan daraxtlardan to'kilgan xazonlarni supurib keldim-da, nonushta tayyorlashga kirishdim. Qo'shnilarimizning hovlilaridan ham supurgining shitirlashi eshitilib turardi. Ular ham xazonlarni supurishga kirishishdi, chog'i.

Dadam nonushta qilish uchun oshxonaga kirdilar-da, birdan yo'talib qoldilar. Dadamda ham, menda ham turli noxush hidlardan allergiyamiz bor. Qo'shni hovlidan yoqilgan xazon tutuni shunday buruqsab kelardiki, uning achchiq hididan zo'r hafsala bilan tayyorlagan nonushtamni mazza qilib yeya olmadik...

Afsuski, bunday manzara faqat biznikida emas, balki yurtimizning ko'p joylarida uchraydi.

Qadrli onaxon-u opa-singillar, dugonajonlar, sizlardan xazonlarni yoqmasligingizni o'tinib so'rayman. Ma'lumotlarga ko'ra, xazon yoqilganda, atrofga zararli gazlar tarqalar ekan. Bu zaharli tutunning nafaqat o'zingiz, balki atrofingizdagi insonlar, bolajonlar salomatligiga zarari kattaligini unutmang! Ayniqsa, nafas yo'llarida muammosi bo'lgan insonlarni noxush islar qiyin ahvolga solib qo'yadi. To'kilgan xazonlarni tomorqalarimizga, ekin maydonlariga tashlasak, o'g'it bo'ladi-ku.

Biz Ona tabiatni asrasak, tabiat bizni asraydi. Demak, sog'lig'imiz o'z qo'limizda.

Gulchehra NOSIRXON qizi

YIG'LAYOTGAN APROQLAR

Ertalab maktabga ketayotsam, yo'l chetida yonib turgan bir uyum xazonga ko'zim tushdi. Bu holatni ko'rib, juda achinib ketdim. Xazonlarning «chirchirs» etib yonishi, xuddi ularning nolasiga, ingrashiga o'xshardi. Shunda xayolimdan «Nahotki, ona tabiatga bo'lgan munosabat shu bo'lsa?», degan o'y o'tdi.

Bugun ommaviy axborot vositalari orqali tabiat inijliklaridan aziyat chekayotgan ko'plab dunyo mamlakatlari haqida eshitib, ko'rib turibmiz. Shunday ekan, biz ham ona tabiatga oqilona munosabatda bo'lishimiz, daraxtlardan to'kilgan xazonlarni yoqmasligimiz lozim. Aks holda, bugungi yo'l qo'yilgan xato, ertaga katta muammolarni keltirib chiqarishi muqarrar.

Munisa A'ZAMOVA,

Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi
2-maktab o'quvchisi

8



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar (jitsimiy harakati) Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'iasi

Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zakrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURGUNOV

Navbatchi muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruza
MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahhih
Dilorom
MUHAMMADJON
qizi

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 47170
Buyurtma N: J 8420